

O'ZBEK MILLY SAN'ATIDA TANBUR CHOLG'USINING USTOZDALARI

Ramazonov Ahliddin

**Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom
san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20701434>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek cholg'u asboblardan biri bo'lgan tanbur haqida tushuncha, uning kelib chiqishi hamda mukammal ijrochilari haqida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: tanbur, kosa, cholg'u, turlari, tarix, musiqa, tanburchi, musiqashunoslar, hunarmandchilik

O'zbek milliy cholg'ularidan biri bo'lgan tanbur - torli musiqa asbobi hisoblanadi. Tanbur cholg'usida aynan o'zbek mumtoz maqomlari ijro etilgan. Tanbur o'ng qo'lning ko'rsatgich barmog'iga maxsus noxun ya'ni mediator taqib chalinadi. Chalinganda faqat birinchi simi chertib chalinadi, qolganlari esa sadolanib turish uchun xizmat qiladi. Forobiyning musiqa risolasida Xuroson tanburining parda tuzilishi keltirilgan. Tanbur o'zbek, tojik, uyg'ur va boshqa xalqlarda professional soz sifatida keng tarqalgan. Asbobning chortor (4 torli), panjtor (5 torli), shashtor (6 torli) turlari bor. Tanburning elektr adapter bilan jihozlangan turlari estrada ijrochiligida qo'llaniladi.

Manbalarda qayd etilishicha tanbur so'zi - forsha yurakni tirnovchi ya'ni tan - yurak, bur-tir-nash degan ma'noni anglatgan. Biroq bu fikrlar naqadar haqiqatligi aniq emas. Fitratning ta'rif berishicha "Tanbur O'rta Osiyo xalqlari cholg'usi - do'nbra tanburni qadimiy bir ko'rinishi ekanligini va u judayam qadimiy cholg'u ekanligi" ma'lum bo'ladi.

Tanburning uzun dastasi hamda noksimon o'yma kosasi bilan birgalikda yaxlit tut yog'ochidan yasaladi. Tanburning umumiy uzunligi 110-130 sm hisoblanadi. Kosasining qopqog'i, ko'p hollarda, yupqa yog'och taxtachadan qilinadi, unda rezonator teshikchalari bor. Dastasiga esa ichakdan qilingan pardalar bog'lanadi.

Tanburning pay ip bilan bog'langan 16-19 pardasi bo'lib, oltinchisi, odatda, ijro etiladigan asarning ladtonallik xususiyatiga ko'ra yuqori yoki pastga surib qo'yiladi. Tanburning 3 ta toridan birinchisi (yuqoridan) asosiy, 2 tasi yordamchidir; birinchisi va uchinchi unisonga, ikkinchisi ularga nisbatan kvarta, ba'zi hollarda esa kvinta yoxud sekunda past sozlanadi. Asbobning diapazoni ikki yarim oktavaga yaqindir.

Tanburning o'ziga xos ta'sirchan hamda nozik ovozi, keng diapazoni orqali Buxoro Shashmaqomi ijrosida asosiy yakkanavoz va (vokal qismlarda) jo'rnavoz soz hisoblanadi. Tanburning keng badiiy imkoniyatlari Turg'un Alimatov hamda uning shogirdlari talqinida namoyon bo'lmoqda. O'zbek bastakorlaridan Orifxon Hotamov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Jo'raxon Sultonov, Fattohxon Mamadaliyev, kompozitorlardan Sayfi Jalil ("Qalbmida"), M. Mahmudov ("Navo" simfoniyasi), Mustafo Bafoyev ("Lison ut-tayr") va boshqalar tanbur imkoniyatlaridan ijodiy foydalanib kelishgan. Darvish Alining ta'kidlashicha qadimda tanbur ikki tordan iborat bolib unga keyinchalik uchinchi tor qo'shilgan, shundan bo'lsa kerak tanburni ba'zi kitoblarda Setor ya'ni uchta torli deb nomlanganligini ham aytib o'tmoq lozimdir.

Tanbur sozi tarixda uch xil sozlangan, ya'ni Rost maqomida 3 -simi kvinta past qilingan Buzruk, Dugoh, Iroqda kvarta past, Navo va Segohda sekunda pasaytirib sozlangan. Hozirda esa Tanbur asosan kvarta, ba'zi hollarda esa kvinta qilib sozlanadi. Tanbur asosan maqom yo'lidagi asarlarni ijro etishga mo'ljallangan cholg'u sozi hisoblanadi.

Zabardast olimlar tadqiqotlari natijasida milliy cholg'ularimiz tosh -qoyalardagi terronotalarda, haykalchalarda, turli miniaturalarda, yog'och o'ymakorligi hamda uy yumushlaridagi tasvirlar tufayli bizning zamonamizgacha yetib keldi. Bunda yirik etnograf, arxeolog, tarixchi -manbashunos va san'atshunoslarning xizmati juda katta bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz.

O'zbekiston hamda Tojikiston qadimgi davrning musiqiy san'atida, milliy - an'anaviy cholg'ularimiz qatoridan alohida o'rin olgan tanbur va dutor sozlari jahon ahamiyatini tobora o'ziga jalb qilib kelmoqda. Tanbur va dutor cholg'ulari asboblari zamonamiz amaliyotida bir necha dilkash nomlarga ega bo'lib, har biri o'zgacha oila paydo qilgan, bular: orkestr, yakka, ansambl va hattoki zamonamiz milliy estrada jamoalaridan joy olib, yuqori o'rinlarga ega bo'lmoqda. Tarixga nazar solar ekanmiz tanbur so'zi qadimda ularning ko'p turlari mavjud bo'lib, tanburlarning tuzilishi ham har xil bo'lgan va ular ko'pgina Sharq mamlakatlarida keng iste'molda bo'lgan. Tanbur va dutorning "Gardon" ya'ni, Grifi Mesopotomiya, ya'ni eramizdan avvalgi uchinchi mingin yillarga tegishliligi manbalarda ko'rsatilgan. Markaziy Osiyoda esa eramizdan oldingi IV - III asr tarixida tanbur va dutor sozlari haqida ham bir qator ma'lumotlar mavjud.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Y.Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent "Badiiy- adabiyot" nashriyoti 1963 yil.
2. T.Ye.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi. -T.: "O'qituvchi" nashriyoti. 1981-yil.
3. Nizomiy nomli TDPU (Res.ilm.anjuman). Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi. -T.: 2009-yil.
4. O.Fayziev. Musiqa o'qitish metodikasi Toshkent 1997 yil.
5. T.Ismailov; "CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART" "Экономика и социум" №3(82) 2021;
6. Y.Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent "Badiiy- adabiyot" nashriyoti 1963 yil.
7. Madaminovich, Fozilov Qaxramon. "Problems of Orchestra Performance in The Practice of Training Smugglers." European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 8 (2021): 42-45.